Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

GLLOBALLASHUV JARAYONIDA INSTITUTLAR JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLINING OSHIB BORISHI TENDENSIYALARI

Azimova Dilnovoz
Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti 2-bosqich talabasi
dilnavoza943@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy institutlarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor institutlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi funksiyalariga qaratilgan. Institutlarning samarali faoliyati jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: institutlar, jamiyat rivojlanishi, iqtisodiyotni boshqarish, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy tizim.

Kirish. O‘zbekiston dunyo mamlakatlari bilan bir qatorda BMTning: «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi dasturi»ni amalga oshirishda o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmoqda. Ushbu «kun tartibi»ni izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining «2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (20.10.2018) hamda «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (21.02.2022) qarorlari qabul qilingan. «Barqaror rivojlanish maqsadlari»ni mamlakat ehtiyojlariga moslashtirish uchun jiddiy qiziqish va intilishlar natijasi sifatida, 2017–2021 yillar uchun O‘zbekistonning harakatlar strategiyasi natijalari va hozirda amalga oshirilayotgan Ўзбекистон 2030 стратегияси Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ni ko‘rsatish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Inson sha’ni va qadr-qimmati yo‘lida»gi asosiy tamoyil xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta’minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, 2030 yilga borib, aholi jon boshiga daromadlarning 4 000 AQSh dollarigacha o‘sishini ta’minlash orqali o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Aynan ushbu g`oyalar mamlakatimizda institutsional islohotlarning mazmunini aks ettiradi.

Jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri – institutlar tizimining samarali faoliyatidir. Institutlar – bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va jamiyat

Published: 23.12.2024

Cite this article: Azimova Dilnovoz (2024). Glloballashuv jarayonida institutlar jamiyat rivojlanishidagi rolining oshib borishi tendensiyalari. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/957

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

a’zolarining maqsadli harakatlarini boshqaruvchi tashkilotlar va tizimlar majmuidir. Bugungi globalizatsiya davrida ularning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ushbu maqolada institutlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi o‘rni va ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

O‘rta asrlarda umumiy manfaatlarni himoya qilish uchun tashkil etilgan har qanday jamoa yoki guruh universitet deb nomlangan. Shuning uchun birinchi ta’lim universitetlari ularni himoya qilish uchun tashkil etilgan o‘qituvchi va talabalar uyushmalari bo‘lgan. Ular doimiy binoga ega bo‘lmagan. O‘qituvchi va talabalar shunchaki zal yoki boshqa katta xonani ijaraga olgan.

Vaqt o‘tishi bilan bu uyushmalar kengayib, binolar qurilgan, ular ma’lum huquq va imtiyozlarga erishgan, universitetlar doimiy bo‘lgan. Birinchi bunday universitet Italiyaning Salerno shahrida tashkil topgan. Taxminan IX asrdan boshlab u tibbiy ta’lim muassasasi sifatida keng tanilgan. Bu muassasa universitet sifatida rasmiy ravishda 1231-yilda tan olingan.

XIX asrning oxiriga kelib Italiyaning Bolonya shahrida ko‘p tarmoqli universitet paydo bo‘lgan. Unda huquq, tibbiyot, san’at va ilohiyotdan ta’lim berilgan.

O‘rta asr oliy o‘quv yurtlarining eng mashhuri rasmiy ravishda XII asrning ikkinchi yarmida tashkil etilgan Parij universiteti edi. U keyinchalik Yevropada paydo bo‘lgan barcha universitetlar uchun namuna hisoblangan. Eng qadimgi ikki

ingliz universiteti Parij universiteti namunasida va unga o‘xshash shaklda tashkil etilgan.

Oksford va Kembrij XIII asrda rasman tan olingan. Bilganimizdek, universitet ko‘plab kollej yoki fakultetlardan iborat bo‘lib, turli mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim olish imkoniyatini beradi. Ko‘pgina ta’lim muassasalari kollej sifatida ish boshlab, keyinchalik universitetlarga aylangan. 1636-yilda Massachusets shtatining Kembrij shahrida tashkil etilgan Garvard AQShdagi birinchi kollejdir. Bugungi kunda u yirik universitet hisoblanadi.

Institutlar ijtimoiy tuzilmalar sifatida insonlar hayotining turli sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Ular jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash va ijtimoiy aloqalarni boshqarish maqsadida tashkil etilgan tizimlardir. Institutlarning mohiyati va vazifalari quyidagilardan iborat:

Mohiyati:

- Ijtimoiy tartibni ta'minlash: Institutlar jamiyatdagi qoidalarning shakllanishi va ularga rioya qilinishini ta'minlaydi.
- Me'yorlarni belgilash: Ular insonlarning xulq-atvorini boshqaruvchi aniq me'yor va qoidalarni ishlab chiqadi.
- Barqarorlikni saqlash: Jamiyatning turli a'zolari o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi.
- Madaniyatni uzatish: Institutlar madaniy an’analar, bilim va tajribalarni avloddan-avlodga yetkazadi.

Vazifalari:

- Normativ vazifa: Qonun-qoidalar va axloqiy me'yorlarni belgilab, ularni amalga oshiradi.
- Integratsion vazifa: Jamiyatdagi guruhlar va shaxslar o‘rtasida hamkorlik va birdamlikni rivojlantiradi.
- Adaptiv vazifa: Jamiyatni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish uchun yangi institutlar yaratadi yoki mavjudlarini o‘zgartiradi.
- Ma'rifiy vazifa: Bilim va ko‘nikmalarni tarqatish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etadi.

- Nazorat vazifasi: Jamiyat a’zolarining faoliyatini kuzatib boradi va nazorat qiladi.

Institutlarning turlari:

1. Siyosiy institutlar: Davlat, hukumat, parlament kabi tashkilotlar orqali siyosiy barqarorlik va boshqaruvni ta’minlaydi.

2. Iqtisodiy institutlar: Korxonalar, banklar va boshqa tashkilotlar orqali iqtisodiy faoliyatni boshqaradi.

3. Madaniy institutlar: Din, ta’lim va ommaviy axborot vositalari orqali madaniy qadriyatlarni saqlaydi va uzatadi.

4. Oilaviy institutlar: Oila tizimi orqali ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Institutlar jamiyatni boshqaruvchi asosiy mexanizmlar bo‘lib, ular inson hayoti va ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta'minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy institutlar, xususan, banklar, moliya tashkilotlari va bozor infratuzilmasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Samarali iqtisodiy institutlar orqali mamlakatda investitsiyalar hajmi oshadi, bandlik darajasi yaxshilanadi va yashash darajasi yuqori bo‘ladi. Masalan, xalqaro moliyaviy institutlarning rivojlanayotgan davlatlarga kredit va yordam ko‘rsatishi ularga iqtisodiy jihatdan rivojlanish imkonini beradi.

Iqtisodiy sohadagi institutlar

Iqtisodiy institutlar jamiyatning iqtisodiy faoliyatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish uchun shakllangan tizimlardir. Ular iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish, taqsimot, almashinuv va iste'mol jarayonlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy institutlarning asosiy xususiyatlari:

-Me’yoriy boshqaruv: Iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonun-qoidalar va normalarni belgilaydi.

-Barqarorlikni ta’minlash: Iqtisodiy tizimning barqaror va samarali ishlashiga hissa qo‘shadi.

-Raqobat muhitini shakllantirish: Bozor subyektlari o‘rtasida sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradi.

-Taqsimotni boshqarish: Iqtisodiy resurslarning adolatli va oqilona taqsimlanishini tashkil etadi.

Asosiy iqtisodiy institutlar:

1. Bozor instituti.

Mohiyati: Talab va taklif orqali iqtisodiy faoliyatni boshqaradi.

Vazifalari:Narxlarni shakllantirish,raqobat muhitini yaratish,resurslarni samarali taqsimlash.

2. Moliya institutlari.

Banklar: Pul mablag‘larini boshqarish, kredit berish, depozit qabul qilish kabi funksiyalarni bajaradi.

Fond bozori: Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy aktivlar savdosini tashkil etadi.

Sug‘urta kompaniyalari: Tavakkalchiliklarni boshqarish va moliyaviy himoya taqdim etadi.

3. Davlat iqtisodiy institutlari..

Soliq tizimi: Soliqlarni yig‘ish va davlat byudjetini shakllantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Monopoliyalarni nazorat qilish organlari: Monopolistik faoliyatni cheklash va adolatli bozor sharoitlarini yaratish.

Iqtisodiy siyosat organlari: Davlatning makroiqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Xususiy sektor institutlari.

Korxonalar: Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik tashkilotlari: Foyda olish bilan birga ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

5. Xalqaro iqtisodiy institutlar..

Xalqaro valuta jamg‘armasi (IMF): Global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash.

Jahon banki: Iqtisodiy rivojlanish uchun kreditlar ajratish.

Jahon savdo tashkiloti (WTO): Xalqaro savdo qoidalarini tartibga solish.

Iqtisodiy institutlarning vazifalari:

- Ishlab chiqarishni boshqarish: Resurslarni samarali taqsimlash va ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish.
- Ijtimoiy adolatni ta’minlash: Resurslar va daromadlarning teng taqsimlanishini rag‘batlantirish.
- Investitsiyalarni jalb qilish: Moliya va kapital oqimlarini boshqarish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish.
- Bozor ishtirokchilarini himoya qilish: Huquqiy me'yorlar orqali iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish.

Iqtisodiy institutlar jamiyatning iqtisodiy hayotini tashkil etuvchi muhim mexanizmlar bo‘lib, ular barqaror rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ijtimoiy institutlar, jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari, inson kapitalini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligi mamlakatning texnologik va ilmiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Sog‘liqni saqlash tizimi esa aholining umr davomiyligini uzaytiradi va jamiyatning umumiy salomatligini yaxshilaydi.

Ijtimoiy soha jamiyat hayotining eng muhim qismlaridan biri bo‘lib, insonlarning kundalik hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu soha odamlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, ularning hayot sifatini oshirishga va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. U ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy muhofaza va boshqa sohalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy sohaning hayotdagi o‘rni:

1. Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish.

Ijtimoiy soha insonlar uchun zarur bo‘lgan ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ta’minlaydi.

Aholi hayotini yengillashtiruvchi xizmatlarni yaratadi, masalan, bolalar bog‘chalari, maktablar, kasalxonalar va madaniy markazlar.

2. Ijtimoiy tenglikni ta’minlash.

Turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida tenglikni saqlashga ko‘maklashadi.

Kam ta’minlangan va imkoniyati cheklangan insonlarga yordam berish tizimlari orqali ularning hayotini yaxshilaydi.

3. Ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish.

Jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Turli millat, din va ijtimoiy guruh vakillarining tinch-totuv yashashiga yordam beradi.

4. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish.

Madaniy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlarni asrash orqali jamiyatning madaniy hayotini boyitadi.

Kutubxonalar, teatrlar, muzeylar va madaniyat markazlari orqali bilim va san’atni rivojlantiradi.

5. Sog‘liqni saqlash va hayot sifatini yaxshilash.

Profilaktika, davolash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali aholining sog‘lig‘ini saqlashga xizmat qiladi.

Atrof-muhitni himoya qilish va sanitariya sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi.

6. Ta’lim va bilim olish imkoniyatlari yaratish.

Har bir inson uchun ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Innovatsiyalar va yangi bilimlar orqali jamiyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

7. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir.

Ijtimoiy soha yangi ish o‘rinlari yaratib, iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo‘shadi.

Sog‘lom va bilimli aholi mehnat unumdorligini oshiradi.

8. Inson huquqlarini himoya qilish.

Ayollar, bolalar, keksalar va nogironlar kabi zaif guruhlarning huquqlarini himoya qiladi.

Zo‘ravonlik, diskriminatsiya va qashshoqlikka qarshi kurashish tizimlarini ishlab chiqadi.

9. Krizislarni boshqarish.

Ijtimoiy muammolarni hal qilishga, masalan, qashshoqlikni kamaytirish yoki ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Favqulodda vaziyatlarda, masalan, pandemiyalar yoki tabiiy ofatlarda, jamiyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga soladi.

Ijtimoiy soha jamiyatni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. U har bir insonning hayot sifatini yaxshilash orqali butun jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Bu sohaning yaxshi rivojlanishi aholining sog‘lom, bilimli va madaniyatli bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, u ijtimoiy muvozanatni saqlash va adolatni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ijtimoiy soha nafaqat insonlar hayotini yaxshilaydi, balki jamiyatning barqaror, innovatsion va tinch rivojlanishi uchun poydevor yaratadi.

Siyosiy institutlar, xususan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari jamiyatni boshqarishda asosiy vazifalarni bajaradi. Ularning barqaror faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlab, jamiyatdagi nizolarni hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, siyosiy institutlar global muammolarni hal etishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Siyosiy institutlar jamiyatni boshqarish, qonun-qoidalarni belgilash va amalga oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Bu institutlar jamiyatni tartibga soluvchi siyosiy tizimning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ular davlat boshqaruvi, siyosiy partiyalar, sud-huquq tizimi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi.

Siyosiy institutlarning hayotdagi o‘rni:

1. Ijtimoiy tartibni saqlash va barqarorlikni ta’minlash.

Siyosiy institutlar jamiyatdagi nizolarni hal qilish va ijtimoiy tartibni mustahkamlash uchun mexanizmlar yaratadi.

Davlat boshqaruvi va qonun ijrosi orqali barqarorlikni saqlab turadi.

2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish.

Konstitutsiya va qonunlarni amalga oshirish orqali inson huquqlarini ta’minlaydi.

Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish uchun sud va huquq-tartibot organlari faoliyat ko‘rsatadi.

3. Davlat boshqaruvini tashkil etish.

Prezidentlik, parlament va hukumat kabi siyosiy institutlar davlatni boshqarish jarayonida yetakchi rol o‘ynaydi.

Davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni boshqaradi.

4. Siyosiy jarayonlarda fuqarolar ishtirokini ta’minlash.

Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va saylov tizimlari orqali fuqarolar davlat boshqaruviga jalb qilinadi.

Saylovlar orqali aholining siyosiy xohish-irodasi ifoda etiladi.

5. Qonun ustuvorligini ta’minlash.

Sud-huquq tizimi adolatni qaror toptirish va qonunchilikni bajarilishiga nazorat qilish bilan shug‘ullanadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarni himoya qilish vazifalarini amalga oshiradi.

6. Jamiyatdagi muvozanatni saqlash.

Siyosiy institutlar turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Har bir guruhning ovozini eshitish va ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish orqali ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.

7. Xalqaro aloqalarni boshqarish.

Siyosiy institutlar boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlar va xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

Milliy manfaatlarni xalqaro darajada himoya qilishga ko‘maklashadi.

8. Siyosiy madaniyatni shakllantirish.

Siyosiy institutlar orqali jamiyatda siyosiy ma’lumotlilikni oshirish va siyosiy jarayonlarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash amalga oshiriladi.

Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

9. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

Davlatning iqtisodiy siyosatini belgilash va amalga oshirishda siyosiy institutlar muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy qarorlarni qabul qiladi.

10. Milliy birdamlikni ta’minlash.

Siyosiy institutlar jamiyatni birlashtiruvchi g‘oyalar va dasturlarni targ‘ib qiladi.

Milliy manfaatlarni himoya qilish orqali xalqning umumiy maqsadlar atrofida birlashuvini ta’minlaydi.

- Davlat boshqaruvi institutlari:Prezident, parlament va hukumat davlat boshqaruvi tizimining asosiy bo‘g‘inlari hisoblanadi. Ular jamiyat uchun strategik qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.
- Siyosiy partiyalar:Siyosiy partiyalar aholining turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilotlardir. Ular saylovlar orqali hokimiyatga kelish va siyosiy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadi.
- Huquqni muhofaza qilish organlari:Sud, prokuratura va politsiya kabi institutlar qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarni huquqiy himoya qilish vazifalarini bajaradi.
- Fuqarolik jamiyati institutlari:Nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar orqali fuqarolar jamiyatning siyosiy jarayonlariga jalb qilinadi.

Siyosiy institutlar jamiyatni boshqarish va tartibga solish mexanizmi bo‘lib, ular barqarorlik, rivojlanish va adolatni ta’minlashda markaziy rol o‘ynaydi. Ularning samarali faoliyati jamiyatni har tomonlama rivojlantirish va fuqarolarning farovonligini oshirishning asosiy shartidir.

O‘zbekiston barqaror rivojlanish sohasidagi muammolarga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakat Prezidentining "BRMga erishishni jadallashtirishda parlament rolini kuchaytirish to‘g‘risida"gi tashabbusi Bosh Assambleya tomonidan 2022 yil 14 dekabrda ma’qullangani bunga yorqin misoldir. Mazkur qarorga muvofiq ishlab chiqilgan

"yo‘l xaritasi" O‘zbekistonda 2023-2024 yillarda barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalariga erishishni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyotida institutlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular insonlar hayotini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlarni shakllantiradi. Iqtisodiy institutlar bozor barqarorligini ta'minlab, resurslarni samarali taqsimlash va bandlik darajasini oshirish orqali farovonlikka yo‘l ochadi. Ijtimoiy institutlar esa inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo‘shib, avlodlar o‘rtasidagi bilim va tajribani uzluksiz uzatib boradi. Siyosiy institutlarning huquqiy tartibni ta'minlashdagi roli esa nafaqat ichki barqarorlik, balki xalqaro miqyosdagi integratsiya va hamkorlikni ham kuchaytiradi.

Muvaffaqiyatli jamiyat qurish uchun institutlarning samarali faoliyatini ta'minlash, ularni zamon talablariga moslashtirish va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash zarur. Har bir davlatning taraqqiyoti kuchli institutlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy yuksalishga, balki milliy birlik va xalqaro nufuzga erishish mumkin. Shu bois, kelajak avlodlar uchun qulay muhit yaratish – bugungi kunda institutlarni isloh qilish va takomillashtirish yo‘lida qilingan harakatlardan boshlanadi.

Institutlar faqatgina qoidalar va tizimlar majmuasi emas, balki ularning ortida turgan qadriyatlar, tamoyillar va insonlar jamiyatning o‘zagi sanaladi. Shu bois, kuchli institutlar – kuchli jamiyatning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida IXTIYORIY MILLIY HISOBOTI. https://api.mf.uz/media/document_files/Ikkinchi_milliy.pdf.

North, D. "Institutions, Institutional Change, and Economic Performance". Cambridge University Press, 1990.

2. Fukuyama, F. "State Building: Governance and World Order in the 21st Century". Profile Books, 2004.

3. Sen, A. "Development as Freedom". Oxford University Press, 1999.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha strategik rivojlanish dasturi” hujjati.

5. Jahon Banki hisobotlari va tahlillari, 2023 yil.

O‘ZBEKISTON SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA DAVLAT VA XUSUSIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH: AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI

Sotvoldiyeva Muslimaxon G`ayratjon qizi
FarPi
muslimasotvoldiyeva201@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston suv resurslarini boshqarishda davlat va xususiy investitsiyalarni jalb etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Suvni qayta ishlash va tejash texnologiyalarining ahamiyati, xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari, davlat-xususiy sheriklik, aylanma iqtisodiyot, investitsiyalar, suvni tejash texnologiyalari, ekologik barqarorlik.

Kirish. Suv resurslari global ekologik va iqtisodiy tizimlarning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish masalasi iqlim